



## “OMMAVIY MADANIYAT”NING KIRIB KELISH YO’LLARI VA VOSITALARI

*IV Xorazm akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar” kafedrasiga  
Tarix fani katta o’qituvchisi  
Matyaqubov Elyorbek Amonbayevich*

Bugungi kun dunyo manzarasini, bevosita, hayotimizni qamrab olgan kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Ta’kidlash joizki, bu tushunchalarning mohiyati ancha keng bo’lib, kundalik hayotimizning eng mayda detallari ham yuqoridagi tushunchalarga chambarchas bog’liq. Haqiqatan ham, biz bugun kompyuter texnologiyalaridan foydalanmaydigan birorta sohani yoki birorta insonni uchrata olmaymiz.

Shuni ta’kidlash joizki, o’tgan asrning so’nggi o’n yili O’zbekiston xalqining istiqlolga erishgani bilan izohlanishi bejiz emas, Vatanimiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyektiga aylandi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq kun tartibiga, xalqimiz ongini biz uchun doimo yot bo’lib kelgan mafkuraviy kishanlardan ozod qilish eng muhim masala sifatida qo’yildi. O’z istiqlol va taraqqiyot yo’limiz – bu gul bilan qoplangan yo’l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo’lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo’lidir. Albatta, barcha muammolarni bir kunda, bir hamla bila yechib bo’lmadi. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash bir umrlik ish. Mustaqilligimiz bu sa’y-harakatlarimiz samarali bo’lishining ishonchli kafolati bo’la oldi. Biz, kommunistik mafkura kabi yot g’oyani hayotimizdan siqib chiqara olgan bo’lsak-da, biroq globallashuv jarayoni



avj olayotgan yuksak texnologiyalar asrida “universal” deya ta’riflanayotgan “ommaviy madaniyat”ning hayotimizga tobora tezkorlik bilan kirib kelishi kuzatilmoxda.

Biz yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni kommunistik mafkura va ahloq normalaridan voz kechilgandan so’ng, jamiyatda paydo bo’lgan g’oyaviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo’lgan, ma’naviy va ahloqiy tubanlik illatlarini o’z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo’lishi kerak. Darhaqiqat, “ommaviy madaniyat” ma’naviy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli ko’rinishlaridan biri bo’lib, ma’naviyatga, milliy qadriyatlarga qarshi qaratilgan tajovuzdir.

«Ommaviy madaniyat» ko‘proq beixtiyoriy ongga ta’sir etishga asoslanadi. Ba’zilar uni kasallik keltirib chiqaradigan virusga qiyoslashadi. Xususan, ingлиз олими Duglas Rojkovning fikricha, ana shunday mediaviruslar (ko‘rib bo‘lmaydigan viruslar) inson tanasiga xuddi biologik virus singari tarqaladi. Ular mediamakon tarmoqlarga hujum qiladi. Inson ongida paydo bo’lgan ma’naviy bo’shliqqa o’rnashadi va uni yemira boshlaydi. Mediavirus uchun proteinli qobiq vazifasini auditorianing e’tiborini tortadigan voqeа-hodisalar, xabarlar bajaradi. Kino, televideniya, matbuot, estrada, rep — bularning hammasi virus — «ommaviy madaniyat»ni tashuvchi asosiy vositalardir. Faqat, «ommaviy madaniyat» qurbanlarining bundan xabari bo‘lmasligi mumkin. Ular kinoni tomosha qiladi, gazeta o‘qiydi, televizor ko‘radi, musiqa eshitadi va «ommaviy madaniyat» to‘riga tushib qolganini, boshqacha qilib aytganda virusni yuqtirib olganini sezmay qoladi. Agar, o‘z vaqtida buning oldi olinmasa, unga qarshi biror vaksina qo’llanilmasa, ma’lum yillardan keyin bu tuzatib bo‘lmas darajadagi xastalikka aylanadi.

“Ommaviy madaniyat”ning eng xavfli tomoni – u to‘satdan kirib kelmaydi. Avvalo, juda kichik detallar, arzimas voqealar orqali odamlarni o‘ziga o‘rgatadi,



ko'niktiradi. Bugun "ommaviy madaniyat" nomi ostida ko'zlangan maqsadlar quyidagilarda namoyon:

1. Axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik orqali yoshlarning ruhiy dunyosini izdan chiqarish;
2. Individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish;
3. Shuning hisobidan boylik orttirish;
4. Boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porish.

"Ommaviy madaniyat" odamlarning ish bilan emas, o'yin bilan mashg'ul bo'lishidan manfaatdor. Chunki o'yin industriyasi ularga juda katta daromad keltiradi. Shuning uchun keyingi yillarda odamlarni jazavaga tushiruvchi o'yinlar ko'payib borayapti. Dunyoda XXI asrda "Homo Ludens" – "o'yinboz odam" iborasi keng iste'molga kirdi. Internet faqat tijorat, iqtisodiyot, hordiq, ilmiy ma'lumotlar olami emas, balki o'yinlar haqidagi ma'lumotlar olamniga ham aylandi. "Игры @mail.ru", "O'yinlar haqida portal", onlayn o'yinlar, "Brauzer o'yinlar", "Mini o'yinlar", "Oddiy o'yinlar" portallari bor. AQSHlik tadqiqotchi R.Folbergning fikricha, AQSHda "muammoli gambler" – o'yinbozlar aholining 5%ni tashkil etadi. Kanadada 75%ga oshgan. Bu faktlarga asoslanib, olimlar junbushli o'yinlarga berilish hodisasini jamiyatning muayyan qismiga tahdid solayotgan ijtimoiy muammo, deya e'tirof etmoqda.<sup>1</sup>

Va bugun bu "madaniyat"ning kirib kelishida asosiy vosita vazifasini bajaruvchi omillar: 1. Internet; 2. Ommaviy axborot vositalari (televideniya, matbuot); 3. Kundalik ehtiyojimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar\*

<sup>1</sup> Quronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. T. "Ma'naviyat", 2011. B. 133-134.

\* Izoh. ..kundalik ehtiyojimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar deyilganda kiyim-kechaklar, mifik tabʼoatlar, maktab o'quv-qurollarining ayrimlari (daftarlardagi rasmlar) hamda shunga o'xshash mahsulotlar nazarda tutilmoqda.



Hozirgi zamон madaniyatshunosligida, odatda, “ommaviy madaniyat”ning uchta asosiy darajasini ko’rsatadilar:

1. Kitch – madaniyat (past darajadagi, vulgar, behayolar madaniyati)
2. Mid – madaniyat (“o’rtamiyona” madaniyat);
3. Art – madaniyat (ma’lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega madaniyat).

Ya’ni, “Kitch” nemischa “kitschen” olmoshidan hosil bo’lgan va saviyasi past, arzon va jo’n asar yaratib, sotishni bildiradi. Bunday asarlar haqiqiy san’at durdonalari soyasida paydo bo’ladigan bo’sh, tez unutiladigan madaniyat mahsulotlaridir. Mid - madaniyatining qamrovi keng, darjasи ancha baland. U an’anaviy madaniyatning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa ham, “ommaviy madaniyat”ga bevosita taalluqlidir. Art madaniyati odatda, aholining bilimli qismiga mo’ljallangan “ommaviy madaniyat”dir. Uning vazifasi ommaviy madaniyatni maksimal darajada an’anaviy madaniyat standartlariga yaqinlashtirishdan iborat.

“Ommaviy madaniyat” xurujiga qarshi eng samarali usul targ’ibot-tashviqot hisoblanadi, bu borada milliy g’oyani targ’ib qilish maqsadga muvofiqdir - bunda quyidagi targ’ibot shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1) keng qamrovlik; 2) uzlucksizlik; 3) ketma-ketlik; 4) bosqichma-bosqichlik; 5) me’yoriylik; 6) shaxsiy ibrat; 7) ilg’or targ’ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish.

Aslida, bugun “ommaviy madaniyat” soyasida kirib kelayotgan axloqsizlik, behayolik, zo’ravonlik va buzuqlik kabi illatlar dunyodagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlarga ham to‘g’ri kelmaydi. Mamlakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Shu bois, “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi tura olish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Barchamizga ayon bo’lishi kerakki, qaqyerdaki beparvolik va loqaydlik hukm



sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. T. "Ma'naviyat", 2011. B. 133-134.
2. Mixli Safarov "Marifat" gazetasi. T. 2023y